



“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



	Özbək dilində ibrani adlari	
20	Rəxşanə BABAZADƏ, Mustafa Zəririn “Yüz hədis və yüz hekayə” əsərində məsdər	175
21	Aytəkin ZEYNALOVA, Özbəkistan və naxçıvan mətbəxində folklor elementləri	178
22	Nazmina ABDISAMETOVA, Qorabuloq shevasida qo‘llanadigan idish-tovoq va uy anjomlari nomi	180
23	Mohlaroyim IZZATOVA, Folklor adabiyotining milliy tafakkur taraqqiyotidagi o‘rni	183

2-sho‘ba. O‘ZBEK SHEVALARI TADQIQOTLARI

1	Samixon ASHIRBOYEV, 20-yillar matbuoti: Faxri Kamolning singarmonizm talqini 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/IYBD6338	187
2	Abdulhay SOBIROV, O‘zbek areal tilshunosligining shakllanish va rivojlanish bosqichlari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/NDQE1005	191
3	Shukurjon NORBAYEVA, Xorazm shevalari leksikasida substrat asosli birliklar 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/EMTE8289	195
4	Ibrohim DARVISHOV, Namangan qipchoq shevalarida sinonimlar 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/OKNB2844	200
5	Mo‘minjon TURDIBEKOV, Tojikistonda o‘zbek shevalarining o‘rganilishi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/SDAQ1466	205
6	Murodqosim ABDIYEV, Salohiddin RAXMONOV, Chandir shevasining ba’zi grammatik xususiyatlari xususida (Pastdarg‘om tumani Chandir qishlog‘i misolida) 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/DHJ12368	209
7	Jo‘ra XUDOYBERDIYEV, Y.D.Polivanov va o‘zbek shevashunosligining ayrim masalalari	212
8	Alisher UBAYDULLAYEV, Qipchoq lahjasiga mansub ayrim qarindoshlik terminlarining lingvistik tahlili 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/YMZR8354	219
9	Navro‘z RAXMONOV, Qipchoq shevalarini o‘rganishning yangi bosqichi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/YMGU2063	223
10	Zoxira XIDRALIYEVA, Iqon shevasiniung o‘zbek adabiy tili va ayrim o‘zbek shevalariga munosabati	225
11	Baurjan SAYFULLAYEV, O‘zbek va qozoq til kontaktlari natijasida shakllangan toshkent qozoq shevasining lingvistik tahlili	228
12	Zilola TILLABAYEVA, Samarqand viloyati qarluq shevalarida o‘zlashma qatlam va bilingvizm masalalari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/GKIU1258	236
13	Vaziraxon ALIMBEKOVA, Adabiy tildagi lakuna va sheva leksikasi munosabati	239
14	Muattarxon TURDIXO‘JAYEVA,	243

O'ZBEK AREAL TILSHUNOSLIGINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

STAGES OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF UZBEK AREAL LINGUISTICS

Abdulhay SOBIROV,

ADU professori, filologiya fanlari doktori
10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/NDQE1005

Annotation. *This article examines Uzbek areal linguistics, the stages of its formation, research conducted in this area, their role in Uzbek linguistics, and the prospects of this discipline.*

Key words: *language, Uzbek language, linguistics, dialect, areal linguistics, Uzbek language array, isogloss, idiom, cluster, linguistic map.*

Bugun dunyoning siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy qiyofasi butunlay o'zgargan. Ilm-fan, texnikaning jadal sur'atlar bilan taraqqiy topishi jahondagi davlatlar va millatlar hayotida tub o'zgarishlarning sodir bo'lishiga olib kelmoqda. Ishlab chiqarish, sanoat, qishloq xo'jaligi, ta'lim-tarbiya sohalarida tarqalayotgan axborotlar dunyo xalqlari turmush tarzida chuqur islohotlarning sodir bo'lishiga olib kelmoqda. E'tiborlisi, bu o'zgarishlar birinchi galda jamiyatning o'ziga xos va betakror ko'zgusi sanalgan milliy tillarda zuhr bermoqda.

Boshqa fanlar qatori lingvistika fanida ham yangilanishlar jarayoni ketmoqda. Natijada tilshunoslik bilan boshqa fanlar kesishgan chorralarda ekolingvistika, biolingvistika, klinik lingvistika, korpus lingvistikasi, kompyuter lingvistikasi, kognitiv lingvistika, internet lingvistikasi, psixolingvistika, sotsiolingvistika, mental lingvistika kabi o'nlab yangi yo'nalishlar yuzaga keldi va mazkur fanlarning har biri alohida tekshirish obyektlariga, maqsad va vazifalarga ega bo'ldi. Shulardan birini areal lingvistika tashkil etadi.

Areal lingvistika atamasi ikki qismdan iborat bo'lib, dastlabki qism lotincha *area* so'zidan olingan bo'lib, *makon*, *maydon*, *joy* ma'nolarini anglatadi [Ashirboyev 2023; 4]. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, areal lingvistika tilshunoslikning geografiya, tarix, etnografiya, kartografiya kabi fanlar bilan kesishgan nuqtasidan turtki oldi. Fan haqida gapirishdan oldin o'zbek tilli massivning miqdori va hududiy tarqalishi haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lish talab etiladi. Ma'lumotlar har xil: <https://ru.wikipedia.org/wiki/uzbeki> saytida dunyoda o'zbeklarning soni 35 million, shundan O'zbekistonda 25 million, Afg'onistonda 2,3-2,7 million, Tojikistonda 1,3 million, Qirg'izistonda 918262 nafar, Qozog'istonda 576000, Rossiyada 289862 nafar, Turkmanistonda 250000, Turkiya, Pokiston, AQSh larida 70-80 mingdan ko'p o'zbeklar istiqomat qilishi aytilgan. Nufuz jihatidan dunyo tillari o'rtasida 41-o'rinda turishi ta'kidlangan.

So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, Afg'onistonda 3,7-6,6 million, Tojikistonda 1 260 000, Qirg'izistonda 1 million, Qozog'istonda 678487, Turkmanistonda 0,5 million, Rossiya Federatsiyasida 323 278, Turkiyada 75 000, AQShda 80 000, Ukrainada 12 353, Xitoyda 10 569, Shvesiyada 3,5 ming, Yaponiyada 6591, Latviyada 2715, Belarusda 1593 va h.k o'zbeklar yashaydi. Bu ma'lumotlar bir yoqlama, asosan, sobiq ittifoq davrida o'zbek tili bilan shug'ullangan rus va xorijiy turkologlar hamda mutaxassislarining fikrlariga tayanib berilgan. Asl manzara esa boshqacha. Isbot tariqasida aytishimiz mumkinki, yuqoridagi saytlarda Afg'onistonda o'zbeklarning miqdori turlicha aytilgan. Afg'oniston hukumati vakillarining ma'lumotiga ko'ra, bu yerda 9 millionga yaqin o'zbek istiqomat qilar ekan. Qo'shni qardosh Respublikalarda yashayotgan o'zbeklarning soni ham saytlardagi ma'lumotlardan ortiqroq. Mazkur ma'lumotlar shuni tasdiqlaydiki, biz davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarga faol integratsiyalashuvi sohasida start holatdamiz. Internet saytlaridagi ma'lumotlar bilan ishlash, ularni yangilab borish malakasiga ega emasmiz. Holbuki, ijtimoiy tarmoqlardagi har bir ma'lumot

kim haqida gapirilayotgan bo‘lsa, u haqda tasavvur hosil qiladi. Qolaversa, bu kabi ma’lumotlarni Internet saytlariga joylash, qayta ishlab borish mutaxassisdan davlat tili to‘g‘risida yetarlicha bilimga ega bo‘lish, o‘zining ona tilidan g‘ururlanish, zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ishlashda yuksak malakaga ega bo‘lishni talab qiladi va u xorijiy tillardan yaxshi xabardor bo‘lishi shart.

Ikkinchi bir joyda – <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/uzbeki> saytida dunyoda o‘zbeklarning soni 50 milliondan ortiq ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan va nufuz jihatidan 32-o‘rinda turishi belgilangan [<https://uz.m.wikipedia.org/wiki/uzbeki>]. Bu ma’lumotga qo‘shilsa bo‘ladi, lekin mazkur ma’lumotni ilmiy-amaliy jihatdan isbotlashimiz zarur. Davlat tili bo‘yicha shu kungacha e‘lon qilingan Prezident Farmonlari mohiyatida ham aynan mana shu masala yotibdi, chunki 50 millionli xalq bu shunchaki xalq emas. Bunday nufuzga ega bo‘lgan xalq asrlar sinovidan o‘tgan, tili, manadiyati, san‘ati qiyomiga yetgan va boshqalarga ibrat bo‘la oladigan millat sanaladi. Bugun O‘zbekiston hukumati tomonidan olib borilayotgan til siyosati buni amalda ko‘rsatmoqda. Dunyo O‘zbekiston va o‘zbeklar tomon intilishni boshladi.

Davlat tilining nufuzi va mavqeini ko‘tarish har jihatdan uning zamonaviy kommunikatsiya va axborotlar tizimidagi o‘rnini yuksaltirishga borib taqaladi. Davlat tilida internet saytlariga qancha ko‘p resurs joylansa, ma’lumotlarning haqqoniyligi va shaffofligi kafolatlansa, undan foydalanuvchilarning soni ko‘paysa, bu til siyosatida oldinga siljish va kutilgan natija bo‘ladi va o‘zbek tilining alohida takson sifatida dunyo tillari o‘rtasidagi nufuzini mustahkamlaydi.

Masalan, Jizzax shahri o‘ramida Toshkentlik, Saroy va Yaxtan mahallasi mavjud. Ushbu aholi punktlari yonma-yon joylashgan bo‘lsa-da, ular tilida bitta *qozon* leksemasi uch xil: [*qʊzʊn/qʊzʊn/qʊzʊn*] shaklida qo‘llanadi. Ushbu hodisani xaritada ifodalash uchun *o/a* unli fonemalari izofonema sifatida olinadi.

Ta’kidlash joizki, o‘tgan asrning 60-70-yillarida o‘zbek xalq shevalarining asosiy qismi dialektologik nuqtayi nazardan o‘rganib bo‘lindi va joylardan juda katta hajmdagi materiallar to‘plandi.

80-yillarning o‘rtalaridan boshlangan yangilanish davri bu materiallarga yangicha yondashish ehtiyojini keltirib chiqardi, lekin tajriba, nazariy asoslar yetishmas edi. V.V.Reshetovning qurama shevalarini o‘rganish uchun tuzgan va 150ga yaqin sheva materiallarini qamrab olgan 49ta kartasi, akademik Sh.Shoadurahmonovning o‘zbek shevalarining lingvistik atlasini yaratish yo‘lidagi urinishlari, professor A.Shermatovning Quyi Qashqadaryo shevalarini tadqiq etish maqsadida bayon qilgan 155ta kartasiga o‘sha paytlarda o‘zbek tilshunosligida hukmron bo‘lgan an’anaviy yo‘nalish tarafdorlari yetarlicha e’tibor qaratmadi. A.Shermatovning “Lingvistik geografiya nima?” risolasi ham ko‘pchilikning e’tiboriga tushmadi. Buning bir qancha obyektiv va subyektiv sabablari bor edi [Шерматов 1981; 56].

Birinchidan, o‘zbek tilshunosligi rus tilshunosligi o‘zanidan yurishga majbur bo‘lib, ilmiy-tadqiqot ishlarida undan o‘tib ketishga haqqi yo‘q edi; ikkinchidan, o‘zbek tilshunoslarida tajriba, malaka yetishmasdi; uchinchidan, jahon tilshunosligida ro‘y berayotgan yangiliklardan umuman bexabar edik; xorijiy tillarni yaxshi bilmasdik. Baribir, kimdir birinchi bo‘lishi kerak edi. Bunday sharaf Bolta Jo‘rayevning oilasida bolalik chog‘idan boshlab qulog‘iga sheva haqidagi gaplar quyilib o‘sgan Aziz Jo‘rayevga nasib qildi. Uning 1983-1986-yillarda Rossiya Fanlar akademiyasining Moskvadagi Tilshunoslik instituti aspiranturasida va doktoranturasida tahsil olgani o‘zbek tilshunosligida yangi areal lingvistika yo‘nalishining shakllanishi va turtki olishiga sababchi bo‘ldi.

A.Jo‘rayev 1986-yili “Yuqori Qashqadaryo dialekti morfologiyasini areal tadqiq etish” mavzusidagi nomzodlik ishi va sobiq ittifoq Fanlar akademiyasining muxbir a’zosi E.R.Tenishev rahbarligida 1991-yili “Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива” (“O‘zbek tillik massivni areal tadqiq etishning nazariy asoslari”) mavzusidagi doktorlik ishi bilan o‘zbek areal lingvistikasiga asos soldi [Джупаев 1991; 39].



Akademik A.Baskakov bilan birga yaratgan 1996-yili Berlinda, so‘ngra 30ta mamlakatda nashr etilgan “Dunyo tillarining geografik atlası” o‘zbek areal lingvistikasining rivojlanishiga munosib hissa bo‘lib qo‘shildi.

Aziz Jo‘rayev boshlab bergan yo‘nalish asta-sekin rivoj topdi. Z.Ibrohimova tomonidan qishloq xo‘jaligi sohasi leksikasining shevalardagi variantlari kartalashtirdi.

Janubiy Qozog‘istondagi o‘zbek shevalari Q.Muhammadjonov tomonidan areal aspektda o‘rganildi [Myxamedjanov 1984; 44].

Dialektologik tadqiqot ishlari bevosita lingvogeografiyaga bag‘ishlangan bo‘lmasa-da, shevalar kartasi ilova qilingan dissertatsiyalar bor. Bunga F.Abdullayevning Xorazm dialektal hududi umumiy kartasi, T.Qudratovning Qashqadaryo oraliq shevalari kartasini kiritish mumkin. Shuni aytish lozimki, yuqoridagi kabi tadqiqotlar kelgusida o‘zbek tilining (shevalarining) milliy atlasini yaratish uchun asos bo‘ladi.

Mustaqillik boshqa sohalarda bo‘lgani kabi o‘zbek tilshunosligida ham tub burilishlarning sodir bo‘lishiga olib keldi. Tilshunoslikning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida areal lingvistika paydo bo‘ldi va rivoj topdi. Keyingi yillarda “Areal lingvistika” bo‘yicha mamlakatimizda e‘tiborga loyiq ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi, darslik va uslubiy qo‘llanmalar yaratildi. Fanning rivojida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili universitetida faoliyat olib borayotgan tilshunoslik kafedralari va “Shevashunoslik markazi” xodimlari, xususan, professor S.Ashirboyevning xizmatlari katta.

Filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning 2023-yilda “Bookmany print” nashriyotida chop etilgan “Areal lingvistika” darsligi soha rivoji uchun uchun muhim yangilik bo‘lib qo‘shildi va bajarilgan an‘anaviy ishlarning intihosi va fandagi innovatsiyalarning in‘ikosi sifatida yuzaga keldi.

Mazkur darslik dolzarb mavzuda yaratilgani, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli, 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-sonli Farmonlarida ko‘rsatilgan vazifalarga mos ravishda yozilgani, 70230101 – Lingvistika (o‘zbek tili) va 70230103 – Folklorshunoslik va dialektologiya mutaxassisliklari uchun darslik maqomida yaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Ushbu darslik aniq reja, namunaviy va ishchi dastur asosida yozilgani; mavzular ketma-ketlikda butunlay yangicha talqinda bayon etilgani; fanning maqsad va vazifalari, talqinlari aniq, tiniq ko‘rsatib berilgani; areal lingvistikaga yondosh fanlar: dialektologiya, til tarixi, geografiya, til nazariyasi bo‘yicha yetarlicha ma‘lumotlar ko‘rsatilgani; tasviriy, qiyosiy, dialektometriya, qiyosiy-tarixiy, chog‘ishtirish, differensial, struktur, distributiv, statistik tahlil, transformatsion, komponent tahlil kabi metodlardan unumli foydalanilgani; til va dialektlarning turli hududlarda tarqalishi, til va dialektlarning makon va zamon birligi, “til va shevalar ittifoqi”, areal va uning turlari, izoglossalar, ularning ko‘rinishlariga atroflicha izohlar berilgani; xorijiy, rus va o‘zbek olimlarining bajargan ishlariga o‘rinli iqtiboslar keltirilgani, o‘zbek tilli massivni 12ta zonaga, azonal hududlarni 7ta turga ajratib tahlil qilingani bilan xarakterlanadi.

Darslikning muhim yutuqlardan birini unda lingvistik xaritalar, turlari, ularni tuzish tamoyillariga bag‘ishlagan fikr-mulohazalar tashkil etadi. Yevropa, rus, belorus tillarida yaratilgan lingvistik xaritalarga sharhlar berilgan, lingvistik xaritaning o‘ziga xos jihatlari tushuntirilgan.

Darslikning qiymati professor S.Ashirboyevning ilmiy salohiyati, lisoniy qarashlari, o‘zbek shevashunosligini yangi sifat bosqichiga olib chiqishdagi fidokorona xizmatlari bilan o‘lchanadi.

Areal lingvistika fani taraqqiyotida Navoiy davlat pedagogika insituti professori, filologiya fanlari doktori N. Murodovanning faoliyati tahsinga loyiq. Uning “O‘zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal talqini” mavzusidagi doktorlik ishi va monografiyasi soha rivojiga



muhim hissa bo‘lib qo‘shildi [Муродова 2006; 236]. Y.Ibragimovning “Orolbo‘yi o‘zbek shevalari tadqiqi”, I. Darvishovning “Areal tilshunoslik: Janubi-g‘arbiy Namangan shevalarining fonetik-fonologik xususiyatlari”, N.Rahmonovning “O‘zbek tili Navoiy viloyati shevalari morfologik xususiyatlarining lingvoareal tadqiqi”, G.Norovanning “O‘zbek tili Zarafshon vodiysi o‘zbek shevalari leksikasining lingvoareal tadqiqi”, D.Nasriyevaning “Areal lingvistika: lingvistik xarita va atlaslar”, Z.Xidraliyevaning “O‘zbek tilining Iqon shevasi”, Sh. Norboyevaning “Xorazm shevalaridagi kiyim-kechak nomlarining struktur-semantik tadqiqi” va “Xorazm shevalari leksikasining onomasiologik tadqiqi” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari o‘zbek areal lingvistikasida yangi sahifalar ochilishiga xizmat qildi.

N.Rahmonov Navoiy viloyati arealidagi shevalarning tadqiqoti va kartalashtirish ishlarini amalga oshirdi. N.Rahmonov til faktlarini kartalashtirishda fonetik va morfologik materiallar asosida ish ko‘rgan. Shundan, monografiyasidagi 20ta kartadan 4-12 kartalar izofonemani, dissertatsiyasidagi 20 kartadan 3-20-kartalar izomorfmlarni aks ettirgan [Рахмонов 2019; 47].

Keyingi yillarda sohaga areal tilshunoslikning yangi avlodi kirib kelmoqda. S.Ashirboev rahbarligida bajarilgan A. Turdialiyevning “Denov shevasini areal o‘rganish va til korpusiga joylashtirish” [Turdialiyev 2024; 159], E.I. Alimardonovning Xorazm dialektal zonasida o‘zbek va turkman shevalarining o‘zaro ta’siri (kontaktologik aspektida) [Alimardonov 2024; 152], V.Alimbekovanning “Janubi-sharqiy Andijon lingvoareli tadqiqi” [Alimbekova 2025; 148] nomli dissertatsiyalari yoqlandi.

Zamonaviy o‘zbek areal lingvistikasi rivojida quyidagi olimlarning ilmiy faoliyatlarini alohida ta’kidlab o‘tish kerak. Ular tomonidan yaratilgan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, monografiyalar va yoqlangan doktorlik dissertatsiyalari o‘zbek areal lingvistikasini yangi taraqqiyot cho‘qqilariga olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ularning fidoiyligi bilan o‘zbek areal lingvistikasining Toshkent, Navoiy, Nukus, Namangan maktablari shakllandi va rivoj topdi. Bugun o‘zbek areal lingvistikasi rivojlanish bosqichiga o‘tgani bilan xarakterlanadi. O‘ylaymizki, u kelgusida tilshunoslikning zabardast yo‘nalishlaridan biriga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashirboyev S. Areal lingvistika. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 148 b.
2. Alimardonov E.I. Xorazm dialektal zonasida o‘zbek va turkman shevalarining o‘zaro ta’siri (kontaktologik aspektida): Filol. fan. bo‘yicha falsafa dokt. (Phd) diss.... – Toshkent, 2024 – 152 b.
3. Alimbekova V. Janubi-sharqiy Andijon lingvoareli tadqiqi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa dokt. (Phd) diss.... – Toshkent, 2025 – 148 b.
4. Darvishov I. Areal tilshunoslik: Janubi-g‘arbiy Namangan shevalarining fonetik-fonologik xususiyatlari. – Toshkent: Navro‘z, 2019. – 147 b.
5. Джураев А. Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: Фан, 1991. – 220 с.
6. Мухамеджанов К. Ареальное исследование узбекских говоров Южного Казахстана: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1988. – 44 с.
7. Murodova N. O‘zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal talqini: Filol. fan. dokt. ...diss. – Toshkent, 2006. – 236 b.;
8. Raxmonov N. O‘zbek tili Navoiy viloyati shevalari morfologik xususiyatlarining lingvoareal tadqiqi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa dokt. (Phd) diss... avtoref. – Samarqand, 2019. – 47 b.
9. Turdialiyev A. Denov shevasini areal o‘rganish va til korpusiga joylashtirish: Filol. fan. bo‘yicha falsafa dokt. (Phd) diss.... – Toshkent, 2024 – 159 b.
10. Shermatov A. Lingvistik geografiya nima? – Toshkent: Fan, 1981. – 56 b.
11. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/uzbeki>.